



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 17-oktabr

540-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2024-yil 11-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Issiqxona xo‘jaliklari faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 26-sentyabrdagi PQ-339-son qarori ijrosi haqida”gi 476-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Issiqxona xo‘jaliklari faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 26-sentyabrdagi PQ-339-son hamda Namangan viloyat hokimining 2024-yil 11-oktyabrdagi 476-6-0-Q/24-sonli qarolari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2024-yil 11-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Issiqxona xo‘jaliklari faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 26-sentyabrdagi PQ-339-son qarori ijrosi haqida”gi 476-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-sentyabrdagi PQ-339-sonli qarori bilan:

Belgilanishicha:

a) kredit shartnomasi shartlariga muvofiq tijorat banklari tomonidan issiqxona xo‘jaliklarining kreditlari bo‘yicha undiruv choralari, shu jumladan, sud tartibida, muddati o‘tgan qarzdorlik qismiga nisbatan amalga oshirish;

b) tijorat banklariga issiqxona xo‘jaliklarining kreditlari summasini muddatidan oldin to‘liq qaytarish bo‘yicha sudga da‘vo kiritishga quyidagi hollarda ruxsat etiladi: muddati o‘tgan qarzdorlikni undirish majburiy ijroga qaratilgan kundan boshlab 60 kalendar kuni davomida qarzdorlik to‘lanmaganda va to‘lov grafigi muddatiga rioya qilinmaganda (grafikka yetib olmaganda);

mazkur band qoidalaridan qat’iy nazar, qarz oluvchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 738 (qarz oluvchining majburiyatlarini ta‘minlash) va 739-moddalari (kreditdan maqsadli foydalanish) talablariga rioya qilinmaganda. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2025-yil 1-aprelga qadar issiqxona xo‘jaliklarida ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olib, mavjud resurslarni va ishga solinmagan salohiyatni jalb etish orqali energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni keng joriy etish ishlarini tashkil etishi;

Bunda: energiya samaradorligi bo‘yicha eng yaxshi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan korxonalarni rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

energioservis (energoauditorlik) kompaniyalari va xorijiy maslahatchilarni jalb etgan holda korxonalarining ishlab chiqarish-texnologik jarayonlari energiya samaradorligini baholash tartibini o'rnatish;

energiya samaradorligi va energiya tejamkorligi borasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va tasdiqlashga alohida e'tibor qaratilishi;

Issiqxona xo'jaliklari faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq;

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 319-son qarori bilan tasdiqlangan Tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga 2-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-sentabrdagi PQ-339-son qaroriga muvofiq 2024-2025-yillar kuz-qish mavsumidan boshlab:

issiqxona xo'jaliklariga hosil yilining dastlabki 3 oyida (oktyabr, noyabr va dekabr) yetkazib beriladigan tabiiy gaz uchun oldindan to'lov 50 foiz miqdorida, qolgan qismi oy yakuniga qadar, keyingi oylardan boshlab esa har oyda 100 foiz oldindan to'lov amalga oshiriladi. Bunda mazkur xatboshidagi qoida tegishli oyda oldingi davr uchun qarzdorligi bo'lmagan issiqxona xo'jaliklariga tatbiq qilish;

tabiiy gaz va elektr energiyasini yetkazib berish bo'yicha shartnomalardagi fors-major holatlaridan tashqari sabablarga ko'ra bosim tushishi yoki uzilishlar bo'yicha issiqxona xo'jaliklari va muzlatkichli omborxonalarni kamida 24 soat oldin "Hududgazta'minot" AJ hamda "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tomonidan majburiy xabardor qilish amaliyoti joriy qilish;

issiqxona xo'jaliklari va gaz korxonasi o'rtasida tabiiy gaz yetkazib berish shartnomalari har 3 yilda bir marotaba tuzish; tabiiy gaz yetkazib berish shartnomalarining texnik shartlariga gaz uzatuvchi va gaz yetkazib beruvchi tashkilotlar uchun aholi va ijtimoiy soha obyektlariga yo'naltirilgan umumiy foydalanishdagi gaz tarmoqlariga ulanmagan issiqxonalarga yetkazib beriladigan tabiiy gazning bosimiga oid talablar kiritish belgilanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Tuman "Elektr ta'minoti korxonasi" (B.G'ulomqodirov), "Hududgaz Namangan" GTF tuman bo'limi boshlig'i (M.Ismoilov), tuman qishloq xo'jaligi bo'limi (A.Xakimov), tijorat banklari va tegishli tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-sentyabrdagi PQ-339-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari B.Muydinov va tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari X.Boylarov zimmlariga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov

